


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

*70230202 — Sinxron tarjima (ingliz tili) magistratura
mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari*

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 - yil "28" 08 dagi 5 - sonli yig'ilishida ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil "08" 08 dagi 302 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1	70230202 — <i>Sinxron tarjima (ingliz tili)</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	70230202 — <i>Sinxron tarjima (ingliz tili)</i> magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70230202 — <i>Sinxron tarjima (ingliz tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi.....	4
1.2.1.	70230202 — <i>Sinxron tarjima (ingliz tili)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	5
1.2.2.	70230202 — <i>Sinxron tarjima (ingliz tili)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	Mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga quyiladigan talablar	7
2.1	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
	Bibliografik ma'lumotlar.....	7
	Kelishuv varog'i.....	8

1. 70230202 – *Sinxron tarjima (ingliz tili)* magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70230202 — *Sinxron tarjima (ingliz tili)* magistratura mutaxassisligi buyicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70230202 – *Sinxron tarjima (ingliz tili)* magistratura mutaxassisligining malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi **70230202** — *Sinxron tarjima (ingliz tili)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur mutaxassislik va tayyorgarlik darajasi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul — oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisliklarining ta'lim dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

- o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- magistratura mutaxassisligini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar va boshqa manfaatdorarlar.

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul — oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

- o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat

attestasiya komissiyalari;

- oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- magistratura mutaxassisliklaridan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar va boshqa manfaatdorlar.

1.2.70230202 — Sinxron tarjima (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.

1.2.1.70230202 — Sinxron tarjima (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.

70230202 — Sinxron tarjima (ingliz tili) magistratura mutaxassisligi — sinxron tarjima ishlarini rivojlanishni tartibga solish, tarjimashunoslik ishlarini oqilona tashkil etish, tarjima resurslaridan oqilona foydalanish.

1.2.2.70230202 — Sinxron tarjima (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- tegishli vazirliklar tizimi tashkilotlari;
- xalqaro tashkilotlar va ularning respublikamizdagi vakolatxonalarini;
- xalqaro turizm sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar;
- bojxona, nashriyot, radio va televideniye tizimi tashkilotlari;
- xorijiy mamlakatlar elchixonalarini;
- turli davlat va nodavlat korxonalarini;
- oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi tashkilotlari;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlari boshqarmalari;
- ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari;
- kasb-hunar kollejlari, akademik liseylar va oliy ta'lim muassasalari.

1.2.3. Mutaxassislik bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- *Tarjimonlik faoliyati;*
- *Ilmiy-tadqiqot faoliyati,*
- *Tashkiliy-boshqaruv faoliyati.*

1.2.4.70230202 — Sinxron tarjima (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70230202 — Sinxron tarjima (ingliz tili) mutaxassisligi buyicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatasion gotuklar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

- sinxron tarjima usullarini egallashi va ulardan unumli foydalanishi;

- xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi;

- O'zbekiston Respublikasining turizm salohiyati va xalqaro turizm haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishi va kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanishi;

- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanishi;

- kasbiy etika kodeksiga rioya qilishni bilishi lozim.

Konsalting xizmati faoliyatida:

- sinxron tarjima turlarini amaliyotda oqilona qo'llash bo'yicha analitik sharh ishlab chiqish;

- respublikamizning turizm imkoniyatlarini tahlil qila bilishi va sohani rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- mutaxassislik bo'yicha mehnat bozorini tartibga solish va mehnatni tashkil qilishdagi mavjud holatning tahliliy sharhlarini ishlab **chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.**

Quyidagi magistr darajasi kvalifikatsiyasi beriladi:

- Sinxron tarjimon (tadqiqotchi-pedagog)

2.70230202 — Sinxron tarjima (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, Sinxron tarjima muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- chet tili sifatida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- O'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olib, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi; - axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2.Kasbiy kompetensiyalar:

- xorijiy tilining nutqiy faoliyat turlarini, ya'ni fikrini og'zaki va yozma ifoda eta olishi, tinglab va o'qib tushinish kabi ko'nikmalarga yetarlicha darajada ega bo'lishi;

- sinxron tarjima uslublari, texnikasi, amaliyoti haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishi;

- xalqaro tashkilot va anjumanlarda sinxron tarjima ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- xalqaro anjumanlarda sinxron, vizual, ketma-ket tarjima qila olish kabi qobiliyatlarga ega bo'lishi;

- og'zaki va yozma tarjima uslublarni farqlay olishi;

- har qanday turdagi, xususan, siyosiy, rasmiy turdagi hujjatlarni, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va matbuot matnlarini yozma tarjima qila olishi;

- tarjima sohasida diplomatik yozishmalarni olib borish;

- Qiyosiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunosliklarda ilmiy tadqiqot olib borish;

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- talim sifati va samaradorligini oshirishga innovasion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni

tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'quv sikli, amaliy sinxron tarjima, og'zaki tarjimaning lingvomadaniy asreklari, xalqaro tashkilotlar va anjumanlar, og'zaki tarjima, ekvivalentlik, adekvatlik, tarjima transformasiyalari, ilmiy-texnik tarjima, sinxron tarjima usullari, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

KELISHUV VAROG'I

ISHLAB CHIQLDI:

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



Rektor  Sh.Sirojiddinov

2022 yil « _____ » _____

m.o'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tadbiq etish markazi



Direktor  Sh.Yakubov

2022 yil « _____ » _____

m.o'.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi



 S.Sayyid

m.o'.